



Constitutional and legal policy in Uzbekistan and its formation

Doniyorbek QURBONOV¹

Samarkand State University named after Sharaf Rashidov

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2024

Received in revised form

15 January 2024

Accepted 25 February 2024

Available online

15 March 2024

Keywords:

society,
state,
Constitution,
politics,
legal policy,
public policy,
constitutional and legal
policy.

ABSTRACT

This article discusses how the main strategies for the development of society, its priorities, and the essence of public policy are reflected in the constitution. The Constitution is not only a legal document, but also the result of the political maturity of society, being a compromise between various socio-political forces. It reflects public policy in the form of law at the highest level, thus allowing us to talk about constitutional and legal policy.

In the context of our country, to clarify the scientific concept of constitutional and legal policy, the article proposes to delve into the analysis of the categories “politics”, “legal policy” and “constitutional and legal policy”, following a logical sequence. This approach promotes a deep understanding of the relationships between political processes and constitutional law.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp19-26>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekistonda konstitutsiyaviy-huquqiy siyosat va uning shakllanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

jamiyat,
davlat,
konstitutsiya,
siyosat,
huquqiy siyosat,
davlat siyosati,
konstitutsiyaviy-huquqiy
siyosat

Ushbu maqolada konstitutsiyada jamiyat rivojlanishining bosh strategiyasi, ustuvor yo'nalishlari, davlat siyosatining mazmun-mohiyati o'zining qonuniy ifodasini topishi haqida fikr yuritiladi.

¹ Student, Faculty of Law, Samarkand State University named after Sharaf Rashidov. Samarkand, Uzbekistan
E-mail: dqurbonov@gmail.com

Конституционно-правовая политика в Узбекистане и её формирование

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

общество,
государство,
конституция,
политика,
правовая политика,
государственная
политика,
конституционно-правовая
политика.

В данной статье обсуждается, как основные стратегии развития общества, его приоритеты и суть государственной политики находят свое отражение в конституции. Конституция представляет собой не только юридический документ, но и результат политической зрелости общества, являясь компромиссом между различными общественно-политическими силами. Она отражает государственную политику в форме закона высшего уровня, позволяя таким образом говорить о конституционно-правовой политике.

В контексте нашей страны, для уточнения научного понятия конституционно-правовой политики, статья предлагает углубиться в анализ категорий «политика», «правовая политика» и «конституционно-правовая политика», следуя логической последовательности. Такой подход способствует глубокому пониманию взаимосвязей между политическими процессами и конституционным правом.

Yangi O'zbekistondagi islohotlar zamirida "inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi" tamoyili hamda fuqarolik jamiyatini barpo etishga yo'naltirilgan demokratik islohotlar tobora keng quloch yozmoqda.

Konstitutsiyada jamiyat rivojlanishining bosh strategiyasi, ustuvor yo'nalishlari, davlat siyosatining mazmun-mohiyati o'zining qonuniy ifodasini topadi. Aslida, Konstitutsiya jamiyat siyosiy yetukligining, turli ijtimoiy-siyosiy kuchlar murosaga kelishining natijasidir. Konstitutsiya nafaqat sof yuridik hujjat, balki davlat siyosatini oliy darajadagi qonun tarzida aks ettiruvchi hujjatdir. Shu ma'noda davlatimizning konstitutsiyaviy-huquqiy siyosati haqida gapirish mumkin [1].

Mazkur ilmiy tushunchani oydinlashtirib olish uchun dastlab "siyosat", "huquqiy siyosat", "konstitutsiyaviy-huquqiy siyosat" kategoriyalarini teran, mantiqiy ketma-ketlikda tahlil etish maqsadga muvofiq. Yuqorida "siyosat" tushunchasini muayyan yoritdik. O'sha fikrlarga yana quyidagilarni qo'shimcha qilamiz.

Siyosat, – qadim yunon faylasufi Demokratning fikricha, – davlatni idora etish, boshqarish, mahoratidir. Bu fikrga hamohang tarzda Aflotun siyosatni hukmdorning san'ati, ya'ni monarxning odamlarni (jamiyatni) boshqarish sohasidagi bilimi va qobiliyati sifatida ta'riflagan. "Siyosat san'atining mohiyati, – deydi u, – davlatning umumiy hayotini oqilona tashkil etish va olib borish mahoratida namoyon bo'ladi".

XI asr donishmandi Nizomulmulk o'zining "Siyosatnoma" asarida siyosatni izohlab, shohlarning davlat boshqarishda turli usul va vositalardan foydalangani, turli vaziyat (mushkulot)larda muayyan oqilona yo'l tutgani, chora-tadbir hamda amallar qo'llagani, murosai madora orqali yurt boshqargani, rag'bat va jazo qo'llab, ibrat kuchi bilan hukmronlik qilgani va shu tariqa maqsadga erishgani: ya'ni davlat tinchligi hamda rivojini ta'minlagani haqida yozadi [2]. Sharqning mashhur allomasi Ibn Xaldun o'zining

“Muqaddima” asarida davlat va siyosat masalalariga katta e’tibor qaratgan. Uning ta’biricha, hukumatlar o’z siyosatida huquq prinsiplaridan (mutafakkir musulmon huquqining prinsiplari, deb yozgan – muallif) chetga chiqmasligi lozim, ... davlat siyosati hukmdorning o’zi bilan cheklanmaydi, unda barcha fuqarolar ishtirok etadi. Shu bois mamlakatdagi barcha o’zgarishlar faqat davlat boshlig’ining maqomi bilangina emas, balki butun jamiyat holati bilan belgilanadi [3]. Ibn Xaldunning mazkur fikrida siyosatning mohiyati ifodalangan bo’lib, davlat rahbari yuritadigan siyosat butun jamiyat manfaatiga daxldorligini anglatadi.

Samarali, dono, realistik siyosat jamiyat barqarorligi, ravnaqi va farovonligi garovi. Siyosatdagi eng muhim masala – davlat hokimiyatidir [4]. Davlat hokimiyati ommaviy-siyosiy xarakterga ega bo’lib, uning asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatni uyushtirish va barchaning irodasini o’ziga bo’ysundirgan holda boshqarishdir. Davlat hokimiyatining o’z irodasini o’zgalarga o’tqazish usullari va boshqaruvni amalga oshirish vositalari ifodasi – siyosatdir.

Davlat faoliyati va ishlarida ishtirok etish – bu ham siyosat. Davlat ishlarida yoki davlat bilan bog’liq munosabatlarda turli ijtimoiy-siyosiy kuchlar, guruhlar, sinflar, partiyalar, millat, xalq hamda fuqarolar ishtirok etadilar. Siyosat bu partiyalar, ijtimoiy guruhlar (tashkilotlar) va ijtimoiy harakatlar (kuchlar)ning, davlat hokimiyatiga nisbatan munosabatlarining ifodasidir. Ayni vaqtda, siyosat – davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar va siyosiy tizim boshqa sub’yektlarining mamlakat ichki hayotida va xalqaro miqyosda xalq, millat va boshqa ijtimoiy guruhlarining maqsad hamda manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga yo’naltirilgan faoliyatidir.

Davlat hokimiyati ijtimoiy hayot yo’nalishlariga monand ravishda siyosat yuritadi. Shunga ko’ra, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, madaniy siyosat, harbiy siyosat, huquqiy siyosat va boshqa turdagi siyosat haqida gapirish mumkin.

Huquqiy siyosat – davlatning huquq bilan, yuridik soha bilan bog’liq faoliyati sifatida izohlanishi mumkin. Huquqiy siyosat, avvalo, mamlakatning huquqiy rivojlanish jarayonlarini boshqarish, davlatning ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmini qaror toptirish va rivojlantirish, inson huquqlarini ta’minlash, qonuniylik va huquqiy tartibni mustahkamlash, huquqiy tarbiya va madaniyatning yuksak darajasini ta’minlash maqsadlari yo’lida yuridik vositalardan oqilona foydalanish borasidagi muntazam faoliyatidir.

Jamiyatda adolat tantanasi va huquq ustuvorligiga erishish, huquqiy davlat barpo etish, ijobiy qonunchilikni istiqbolga mo’ljallab rivojlantirishda samara va maqsadga erishish uchun ilmiy zaminga tayangan oqilona siyosat ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishi lozim.

Ilmiy mushohada va tahlil yuritish uchun huquqiy siyosatning mohiyatini teranroq aks ettiradigan ta’rifiga ega bo’lish zarur. Mazkur ma’noda huquqiy siyosat – davlatning huquqiy mafkurasi, jamiyatni huquqiy boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish falsafasi, uning huquqiy hayot bobida tutadigan yo’l-yo’rig’i, joriy etadigan amal va tadbirlari, qo’llanadigan rahbariy g’oyalari va tamoyillari ifodasidir [5].

Albatta, huquqiy siyosatning o’zagini Konstitutsiya va qonunchilikda mujassamlanadigan siyosat yoki konstitutsiyaviy-huquqiy siyosat, qonunchilik siyosati tashkil etadi. Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonun va boshqa qonunlarda huquqiy siyosatning tag zaminli prinsiplari va mazmunini ifodalovchi asosiy qoidalar mustahkamlanadi.

Mustaqil davlat sifatida tarix sahnasiga chiqqan dastlabki kunlardan boshlab O'zbekiston o'z huquqiy taraqqiyot strategiyasini belgilab, mustaqil ravishda qonunchilik siyosatini yuritib kelmoqda.

Davlatning huquqiy siyosati prinsiplarini umumiy va tarmoq prinsiplariga ajratish mumkin. Umumiy prinsiplar jamiyat huquqiy tizimining asosini tashkil etuvchi, uning tub mohiyatini, ichki mazmuni va qonuniyatlarini ochib beruvchi normativ-rahbariy g'oyalardir. Tarmoq prinsiplari huquqiy munosabatlar turiga muvofiq holda jinoiy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy, moliyaviy-huquqiy va hokazo sohalarga taalluqli bo'lgan maxsus prinsiplarga bo'linadi. Tarmoqqa oid prinsiplar huquqning shu sohasiga tegishli qonunchilik hujjatlarini yaratish va huquqni qo'llash asoslarini belgilab beradi.

Huquqiy siyosat prinsiplari tegishli qonunchilik qarorlari vositasida o'zining moddiy ifodasiga ega bo'ladi, hayotga joriy etiladi. Qonunchilik siyosati bilan ob'yektiv huquq o'rtasida voqelikdan normaga o'tishdek yangi bosqich mavjud. Qonun chiqaruvchi organning butun san'ati va mahorati qonunchilik (huquqiy) siyosatining prinsiplarini ro'yobga chiqarishga aynan mos keladigan qarorni topib qabul qilishda namoyon bo'ladi.

Davlat o'zining suveren irodasini qonunlar vositasida rasmiylashtiradi hamda jamiyatga taqdim qiladi. U qonun ijodkorlik faoliyati natijasida ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ma'naviy hayotning barcha jabhalarida eng muhim munosabatlarni huquqiy tartibga solishga yo'naltirilgan normativ – huquqiy hujjatlar yaratadi.

Davlat hokimiyatining siyosati, ayniqsa, huquqiy siyosati qonun ijodkorligi orqali hayotga joriy etiladi, maqsadli singdiriladi. Ayni chog'da, qonun ijodkorligi borasidagi alohida huquqiy siyosat xususida ham gapirish mumkin. Buni davlatning qonunchilik siyosati degan kategoriyada ifodalash qulayroq hisoblanadi.

Qonunchilik siyosati – davlat huquqiy siyosatining bir bo'lagi bo'lib, unda ijtimoiy munosabatlarni qonunlar vositasida huquqiy tartibga solishning asosiy yo'nalishlari, prinsiplari, maqsad va vazifalari o'z ifodasini topadi. Qonunlarni shakllantirish, qabul qilish va hayotga joriy etish maqsadlariga yo'naltirilgan maxsus siyosiy – yuridik ta'sir etish vositalari hamda choralari yig'indisi qonunchilik siyosati voqeligini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, qonun ijodkorligi davlatning huquqiy (qonunchilik) siyosatini shakllantirish, ifodalash, rasmiylashtirish hamda amalga oshirishning muhim vositasi sanaladi. Qonunchilik siyosati ijtimoiy boshqaruv san'atining maxsus turidir. Qonunchilik siyosati qonun ijodkorligining bosh mazmunini, asosiy yo'nalishlarini, tendensiyalarini, uni takomillashtirish strategiyasi hamda taktikasini, qolaversa modernizatsiyalash mantig'ini belgilaydi.

Qonunchilik siyosatining eng muhim sifati – qonunchilikni takomillashtirish maqsadiga yo'naltirilganlik, huquq ijodkorligi va huquqni ijro etishni tashkil qilishning ratsional tizimini ishlab chiqishlikdir. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida hech kimga tobe bo'lmagan alohida qonunchilik siyosatini yuritadi. Yuksak nufuzli insonparvar, adolatli hamda demokratik qonunlar yaratish, qonunni inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash vositasiga aylantirish, jamiyat uchun umumiy manfaatli barcha munosabatlarni qonun yordamida muhofaza etish kabilar ushbu siyosatning asosini tashkil qiladi.

Ma'lumki, Konstitutsiya davlat siyosatini oliy saviyada qonuniy tarzda rasmiylashtiruvchi hujjatdir. Asosiy qonunimizda qonun ijodkorligi jarayoni va uning bosqichlari, qonunlarni yaratishning konstitutsiyaviy mexanizmi aniq hamda qat'iy

mustahkamlangan. Mazkur moddalarda belgilangan qoida, prinsip va normalar mamlakatimizda amalga oshiriladigan qonun ijodkorlik faoliyatining, shuningdek, qonunchilik siyosatining konstitutsiyaviy asoslarini tashki etadi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy siyosat huquqiy siyosatning eng oliy qonun darajasida mujassamlanadigan ifodalanadigan va mustahkamlanadigan asosiy turidir. Ayni vaqtda, huquqiy siyosatning boshqa turlari: jinoyat-huquqiy siyosat, moliyaviy-huquqiy siyosat, oila institutiga oid huquqiy siyosat, mehnat-huquqiy siyosati, ijtimoiy-ta'minot sohasidagi huquqiy siyosat haqida ham gapirish mumkin.

Konstitutsiyaviy-huquqiy siyosat deganda, avvalo, davlatning Konstitutsiyada ifodalanган siyosatini anglamoq lozim. Ushbu siyosat, bizning fikrimizcha, davlat hokimiyatining suverenligining tashkil etilishi va faoliyat yuritishining konstitutsiyaviy asoslarini eng muhim prinsiplarini, shuningdek, jamiyatga davlat rahbarligini (boshqaruvini) amalga oshirishning usul va shakllarini, davlatning huquqiy tartibga solish sohasidagi faoliyatining strategik g'oya va yo'nalishlarini, davlat bilan fuqaroning (fuqarolik jamiyati institutlarining) huquqiy aloqalari me'yorlarini, insonning huquqiy maqomi asoslarining eng oliy darajasida ifoda etishdir. Zotan, Konstitutsiya bilan siyosat o'zaro dialektik aloqador hisoblanadi. Xuddi konstitutsiya siyosatdan xoli bo'lmagan kabi, legitim demokratik siyosat ham konstitutsiyadan tashqari bo'lishi mumkin emas. Boshqacha aytganda, demokratik-huquqiy davlatda agar siyosat xalq (jamiyat) tomonidan tan olingan bo'lsa, u konstitutsiya normalarida ifodalanmog'i lozim.

Konstitutsiyaviy-huquqiy siyosatning mohiyati – Konstitutsiya va mamlakat miqyosida harakatlanayotgan qonunchilik zahirida konstitutsiyaviy tuzumni yuridik mustahkamlash va himoya qilish, davlat hokimiyati idoralarining samarali tizimini shakllantirish, shaxsning huquq va erkinliklarini amalga oshirishga oid tashkiliy-huquqiy shart-sharoit yaratish, va nihoyat, davlatning siyosiy hayoti soha bilan fuqarolik jamiyati hayoti sohasi o'rtasidagi munosabatlarning muvozanatini ta'minlashdan iborat.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy-huquqiy siyosat – Konstitutsiya asosida huquq yaratish va uni amalga oshirish sohasida davlat organlari, mansabdor shaxslar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, individlar va ular tashkilotlarining shaxs huquq va erkinliklarini tan olish, ularga rioya etish va himoya qilishga, shuningdek, huquqiy vositalar bilan konstitutsiyaviy tuzimni muhofaza etishga oid asosiy konseptual qoida va mezonlarni ishlab chiqish hamda jamiyat hayotiga tatbiq etishga yo'naltirilgan faoliyati.

Xo'sh, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida tegishli huquqiy siyosatga asos bo'luvchi qanday ustuvor siyosiy-huquqiy g'oyalar, prinsiplar hamda qoidalar mustahkamlangan?

Avvalo, Konstitutsiyamizda eng muhim siyosiy masala, ya'ni davlat hokimiyatining asoslari mustahkamlangan. O'zbekistonda hokimiyat demokratik asoslarda tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Davlat hokimiyatining birdan-bir manbai xalqdir. Davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Huquqiy siyosatning Konstitutsiyamizda aks etgan yana bir o'ta muhim ustuvor yo'nalishi – huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish g'oyasidir. Nafaqat g'oya, balki shunday jamiyatning prinsiplari va tashkiliy-tuzilmaviy institutlari ham nazarda tutilganligidir.

Konstitutsiyada fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismlari va institutlari bo'lmish jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar, siyosiy partiyalar, diniy tashkilotlar, oila, maktab, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari (shu jumladan, mahalla), jamg'armalar, uyushmalar va boshqalarning huquqiy maqomi asoslari qonuniy mustahkamlab qo'yilgan.

Mamlakat parlamenti – qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy davlat vakillik organi sifatida qonunchilik siyosatini shakllantirish va hayotga joriy etishda salmoqli rol o'ynaydi. Ma'lumki, parlament qonun ijodkorlik jarayonini samarali tashkil etish, izchil qonunchilik tizimini shakllantirish, sifatli qonunlar qabul qilinishini ta'minlash, qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq katta hajmdagi ishlarni bajaradi. Parlament mamlakat taraqqiyotining tegishli bosqichlarida muhim qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish bo'yicha qonun ijodkorlik ishlari rejalarini qabul qiladi, mazkur faoliyatning konseptual va tashkiliy jihatlarini muhokama etib, o'z strategik vazifalarini belgilaydi.

Oliy Majlis qonunchilik siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayoniga Konstitutsiyada nazarda tutilgan qonunchilik tashabbusi huquqi sub'yektlarini, siyosiy partiyalarni (ularning parlamentdagi fraksiyalarini), fuqarolik jamiyatining barcha institutlarini, ayniqsa, ommaviy axborot vositalarini keng jalb etadi. Mazkur siyosatning asosiy prinsiplari va ustuvor yo'nalishlari mazmunida mamlakatda o'tkazilgan referendumlar, qonun loyihalarining umumxalq muhokamalari yakunlari, xalq ijtimoiy fikrini va fuqarolarning huquq tashabbuskorligini aks ettirish ta'minlab kelinmoqda. Qonun ijodkorligi jarayonida xalq ommasining fuqarolarning keng ishtirokini ta'minlash parlament sobitlik bilan rioya etadigan demokratik konstitutsiyaviy prinsipdir.

Hukumat darajasida qabul qilinadigan qarorlar qonun va farmonlar ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, ular ham davlat tomonidan yuritilayotgan qonunchilik siyosatining amaliy jihatlarini aks ettiradi. Qonunchilik siyosatining ayrim yuridik va tashkiliy masalalarini ishlab chiqishda, hayotga tatbiq etish va qonunchilik hujjatlarni loyihalashtirish, amaldagi qonunchilikni yangi qabul qilingan qonunlarga muvofiqlashtirishda Adliya vazirligi, qonunlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etishda Prokuratura, qonunlar ijrosini tahlil etish bo'yicha Prezident huzuridagi amaldagi qonunchilik monitoringi instituti va boshqalar muhim rol o'ynaydilar.

Davlatning qonun ijodkorligi sohasidagi huquqiy siyosatini shakllantirishda sud hokimiyati sub'yektlari ham faol qatnashadilar. Konstitutsiyaviy sud, umumiy yurisdiksiya sudlarining oliy organi – Oliy sud qonunlarni qo'llash amaliyotini tahlil etish asosida qonunchilik tashabbusi tartibida parlament e'tiboriga muntazam ravishda tegishli takliflarni kiritadilar. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud huquqiy islohotlarning konsepsiyasi, shuningdek, jinoyat qonunchiligi va jinoiy jazo tayinlash tizimini liberallashtirish konsepsiyasi ham ushbu demokratik o'zgarishlarning huquqiy bazasini shakllantirish borasidagi qonunchilik siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Shu o'rinda huquqiy siyosatning alohida turi sifatida sud – huquqiy siyosati mavjudligini ham ta'kidlab o'tish mumkin. Fikrimizcha, sud huquqiy siyosati – davlat hokimiyatining, tegishli davlat organlari va mansabdor shaxslarning, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatdagi odil sudlovni tashkil etish va amalga oshirishga oid huquqiy g'oyalarni, prinsiplarni, sohani isloh etish mafkurasi hamda strategiyasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan maqsadli, ilmiy asoslangan, izchil va tizimli faoliyatidir. Uning mohiyati jamiyat va davlat manfaatlarini fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, odil sudlovni samarali tashkil etish va amalga oshirishga doir g'oyalarni shakllantirish hamda vazifalarni belgilash, dasturlarni ishlab chiqish va hayotga joriy etishdan iborat.

Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonlari davom etayotgan hozirgi sharoitda davlatning qonun ijodkorlik faoliyatiga, umuman, qonunchilik siyosatining mazmuniga yanada yuqori yangi talablar qo'yilishi tabiiy. Mazkur vaziyatda qonun ijodkorligi sohasidagi davlat siyosatini davr ruhi va ehtiyojlariga mos holda takomillashtirishni ta'minlovchi mustahkam metodologiyaga tayangan ilmiy konsepsiyasini shakllantirish maqsadga muvofiq [6]. Bu o'rinda qonunchilik siyosati – qonunlar yaratish sohasidagi davlat faoliyatining ilmiy asoslangan strategiyasi va taktikasi sifatida maydonga chiqadi. Qonun ijodkorligi borasidagi huquqiy siyosatni rivojlantirish konsepsiyasida, chamasi, avvalo, qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatining va qonunchilik siyosatining bosh maqsadi, asosiy vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, rivojlanish tendensiyalari, qo'llaniladigan rahbariy prinsiplari, strukturasi va shakllari, ijtimoiy munosabatlarni qonun vositasida tartibga solishning tegishli vositalari va usullari o'z aksini topishi zarur. Qonun ijodkorligiga oid siyosatning istiqbolga mo'ljallangan konsepsiyasini ishlab chiqishda qonun va qonunchilik hujjatlari tizimi rivojlanishini prognoz qilish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Shunday qilib, qonunchilik siyosati davlat huquqiy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mamlakatning izchil huquqiy taraqqiyotini ta'minlash, huquqiy tizimni yaxlit voqelik tarzida sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, qonun ijodkorligi faoliyatini modernizatsiya qilish, uning ilmiy asoslarini mustahkamlash, eng muhimi, ijtimoiy munosabatlarni samarali huquqiy tartibga solishning qonuniy mexanizmlarini yaratish imkonini beradi.

Ma'lumki, barqaror va ma'rifiy fuqarolik jamiyati – demokratik huquqiy davlatchilik hamda qat'iy huquqiy tartibot muhitini qaror toptirish garovidir. Yurtimizda adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish istiqbolli strategik maqsadga aylanganligi siyosiy darajada ko'p bora e'tibor etib kelinayotganligi bejiz emas.

Tahlil etilayotgan konstitutsiyaviy – huquqiy siyosat umumiy davlat huquqiy siyosatining o'zagini tashkil etadi. Ushbu huquqiy siyosat parlament, Prezident va Hukumat tomonidan shakllantiriladi, boshqa davlat organlari tomonidan u amalga oshiriladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni muhim o'rin tutadi. Farmonda huquqiy islohotlarni va huquqiy siyosatni yuqori samaradorligini ta'minlashda adliya organlari faoliyatida uchrayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari belgilanib, tegishli tashkiliy-huquqiy mexanizmlar joriy qilindi.

Bugun biz ham komil insonlarning fozil jamiyatini yaratishga salohiyatimiz, kuch, imkoniyatimiz yetadigan xalq ekanligimizni dunyo jamoatchiligi tan olmoqda. Biz o'zimiz va kelajak avlodlarimiz uchun hech kimdan kam bo'lmagan, rivojlangan ma'rifiy, huquqiy demokratik davlatlarda mavjud bo'lgan hayot darajasiga erisha olamiz. Binobarin, haqiqiy baxtga, komillikka erishish maqsadida kishilarni birlashtirgan jamiyat fozil jamiyatdir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi – fozil jamoadir [7]. O'zbekiston kelajagi ana shunday fozillik jamiyati bo'lishiga umid bildirish, barkamol jamiyatni qaror topshirish orzusi bilan yashash va ijodiy mehnat qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. M. Mirziyoyev Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 6-b.
2. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki savr ul-Mulk. -T., 1997. -38-b.
3. Istoriya politicheskix I pravovix ucheniy. -M., 1999. -C.142.
3. Matuzov N.I. Aktualniye pobleml rossiyskoy pravovoy politiki // Gosudarstvo I pravo. 2001.
4. X.T. Odilqoriyev O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni. -T., 1995. -34-b.
5. X.T.Odilqoriyev, I.T. Tulteev Ikki palatali parlament. -T., 2005, 142-146-betlar.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T., 1993. -187-b.